



*Polosonda
13-maktab bor!*

2-bet



*Mehr ildiz
otgan maskan*

6-7-betlar



*Maktublar -
dil tarjimoni*

9-bet

www.tongyulduzi.uz

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
25-oktabr
N:43
(66792)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Muxbir safardan qaytdi

Aziz bolalar!

Kundan-kunga yurtimizning har go'shasi obod bo'lib bormoqda. Buni o'zingiz ham ko'rib turibsiz. Xususan, Samarqand shahri ham bugun yangicha chiroy ochdi. Temiryo'l vokzalidan boshlab to Mirzo Ulug'bek bobongizga o'rnatilgan ulug'vor haykal yoniga yetguningizcha bir tekis, ravon yo'llar, zamonaviy turar joy binolari, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, Ulug'bek rasadxonasi hamda betakror Registon atroflarining obodonlashtirilgani ko'zingizni yashnatadi.

Toshkent ko'chasini aytmaymizmi? Go'yoki ertaklar olamiga tushib qolgandek bo'lasis. Tovushsiz, yengil, chiroyli avtoulovlar xizmatigizga tayyor. Qanday zo'r-a, deysiz beixtiyor. Yam-yashil maysalar, bir-biridan sarv dov-daraxtlar, rang-barang binolarni ko'rib, zavqingiz yanada oshadi. 21-maktabning dovrug'ini eshitgansiz. Ichki sahifalarimizda bu to'g'rida kengroq ma'lumot berganmiz.

Bir narsani yodda saqlang: mustaqillikdan so'nggina Samarqand ham qayta tiklana boshladi. Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda, Bibixonim va boshqa o'nlab tarixiy obidalar o'ta ehtiyotkorlik va noziklik bilan ta'mirlanib, asl holiga keltirildi. Bugun nafaqat samarqandliklar, balki xorijlik sayyohlar ham bu o'zgarishlarni ko'rib, hayratlarini yashirmayaptilar.

Biz Yaponiyadan kelgan sayyohlar bilan suhbatlashdik. Ularning yurtimiz haqidagi taassurotlari bizni juda xushnud etdi. Keyingi sonlarimizda bu to'g'rida batafsil ma'lumot beramiz. Xullas, biz Samarqanddan juda zo'r kayfiyatda qaytdik.

Gazetamizning ichki sahifalaridagi maqolalar bilan tanishib, fikr-mulohazalaringizni yozib yuboring. Taklif etsangizlar, sizlar bilan suhbat qurishga boramiz va taassurotlarimizni baham ko'ramiz.

SAMARQANDNING YANGI QIYOFASI



(4-5, 6-7, 8-sahifalarda o'qiyasiz)

Farhodjon bizga bosh bo'ldi: uning oliyanoblighi bizni mamnun etdi.

Farhodjon bizga korxonasini ko'rsatdi, ellik ayol-qiz ish bilan ta'minlanganini ko'rib, davr talabiga labbay deb javob bergan yosh yigitdan yana mamnun bo'ldik.

Farhodjon bizni ko'z ko'rsa quvonadigan maktabga olib keldi. Ana maktab-u mana maktab! Darsdan qiyqirib chiqqan bolakaylarni ko'rib, ularga chinakamiga havas qildik...

Qishloq ahli yo'l yoqasida joylashgan bu ulug'vor, muazzam maktab bilan chinakamiga faxrlanishadi. Unda mingdan ortiq o'g'il-qiz tahsil oladi. Saksondan ortiq ustoz-murabbiylar ularga ilm sirlarini o'rgatishmoqda.

Maktab yonidan o'tayotgan Ne'matjon akaning ko'zlarida quvonch yulqinlari ko'rindi: - Chiroyli maktablarni ko'rib, yana o'quvchi bo'lib qolgim kelyapti!

Bu gapdan yonimda turganlarning ham ko'zlarida shodlik nurlari porladi.

- Bugun m a m l a k a -timizdagi xohlagan maktabga kiring, o'zgacha fayzni, keng shart-sharoitlarni ko'rib, havasingiz keladi, - deydi Ne'matjon aka gapini davom ettirib, - hamma gap endi bolalarimizni tarbiya qilishimizda! Ular mana shu ishlarimizning qadriga yetib, chuqur bilim olishlari kerak!

Ana shu gaplardan so'ng u kishining hayotiga nazar solgim keldi. Yoshlarga, o'smirlarga biz kimlarni namuna qilib ko'rsatishimiz kerak? Chunonchi, bola taqlidchi bo'ladi. O'zimiz ham yaxshilarga taqlid qilib o'rganganmiz. Ne'matjon akani Oltiariqda yaxshi bilishadi: mahalla-ko'y uchun ko'p jonbozliklar ko'rsatgan inson. Oqsqoql sifatida uni kattadan-kichik hamma hurmat qiladi.

Xo'sh, aytinch bolalar, bu darajada hurmatga loyiq bo'lish osonmi? Masalan, siz o'zingiz do'stlaringiz, sinfdoshlar va tengdoshlaringiz orasida obro'-e'tibor topishni istaysizmi? Istaysiz! Buning uchun nima qilaysiz? Albatta, birinchi galda atrofingizga yaxshilik qilishni istaysiz.

Ne'matjon bobongiz ham bu kungacha juda katta yo'lni bosib o'tdilar.

Farg'ona pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyot fakultetini tugatib, 13-, 14-, 31-maktablarda o'qituvchilik qildi. Ilmiy bo'lim mudiri, direktor o'rinbosari va maktab direktori lavozimlarida mehnat qildi. Besh nafar o'g'il va to'rt qizni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Hozir ularning bari ozod yurt xizmatida. Avazbek, Odiljon, Sobirjonlar muhandis, Qodirjon

mexanik, Farhodjon esa tadbirkor, to'qimachilik bo'yicha muhandis-mutaxassis, bir nechta tilni yaxshi biladi. 2007-yilda Avazbek akasi bilan qishloqda «Fromoda tekstil» mas'uliyati cheklangan jamiyat korxonasini tashkil etib, qishloqdoshlarini ish bilan ta'minladilar. Korxonada hozirda «O'zbekiyengilsanoat» Davlat aksiyadorlik kompaniyasining a'zosi hisoblanadi. Bu yerda ellik nafar xotin-qizlar mehnat qilishmoqda. Har oyda 15 turda tayyor kiyimlar tikilib, savdo shoxobchalariga chiqarilmoqda.

Bolalar, albatta, og'izda aytish oson, lekin shunday



topgan ekan, demak, uning baxti ham shunda. Shirin suhbatlar, savol-javoblar. Ularni yozsak, qog'oz yetmaydi.

Chakkalariga oppoq lenta taqqan jajji qizchalar, o'smirlar:

- Rasimga tushaylik! - deya bir-birlarini oldinga surishardi.

Bir-biridan shirin bolakaylarga havas bilan qarayotgan Ne'matjon aka bir paytlar o'zi o'qitgan o'quvchisining bugungi kunda mamlakatning taniqli insoni ekanligidan chinakamiga shodlikka to'layotgani aniq edi.

- Hoji bobomiz hozir nafaqada bo'lsalar-da, doimo maktab va mana shu jajji bolalar bilan birga, - deydi Anvar aka, - maktab yonidagi kitob do'koni, qishloq yig'ini binosi oldidagi dorixonani ham shu Ne'matjon otimiz qurib berganlar. 90 gektar yerni o'zlashtirib, tuman sanoat-qurilish tashkiloti ishchilariga dala-bog' yaratib berganlarini ham bilaman.

Ne'matjon bobo o'zini o'rab turgan bolakaylarni zavq bilan savolga tutadi. Vijir-vijir quvnoq ovozlari qalbni hayajonga to'ldiradi. Baxtli bolalik, baxtli keksalik. Ikki avlod uchrashuvini kuzatayotgan quyosh yorqin charaqlab, ularning yuzlaridagi quvonchlarni zar nurlari bilan chulg'aydi.

Yaxshilarning fidoyisi bo'lmish taniqli adib do'stimiz Mirzapo'lat Toshpo'latov: - Haqiqatan ham bu insonga havas qilsa arziydi, topganini el bilan baham ko'radi u kishi, - deydi zavq bilan. - Mana, birgina misol: qishloq tibbiy punkti qurilishiga 700 ming so'm yordam qilibdilar, a'lochi va intizomli bolalarni nafaqa puli hisobidan rag'batlantirib yuradilar. Ezgusevar bo'lishga nima yetsin?!

Bizni ota kasbini tanlaganlar ham bormi, degan savol ham juda qiziqirdi. Keyin bilsak, qizlari Lolaxon, Donoxon, Gulbahor, Ra'noxonlar ustoz degan sharafli kasb egalari ekan. Nabiralari Oybek, Sardorlar ham oliy ma'lumotli mutaxassislar bo'lib yetishibdilar.

Ularning hammasi Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida joylashgan 13-maktabni bitirishgan. Polosonda 13-maktab bor, deya behuda faxr bilan gapirmaydilar. Hali bu maktabning dovrug'i

yana da uzoqlarga ketadi, chunonchi, nevara-chevaralar ham shu maktabda tahsil olishmoqda: ulardan yana boboning o'ziga o'xshagan elsevar fidoyilar, Anvar Obidjonlar, Odiljon va Farhodjonlar yetishib chiqadi. Ne'matjon boboning ko'zlariga ko'p ezguliklar yanada ko'proq quvonch nurlarini ato etishiga ishonaman.

POLOSONDA 13-MAKTAB BOR!

katta ishlarni tashkil etib, yurtning bir parcha yerini obod etib, odamlarni ish bilan ta'minlab yurgan bunday akalarimizga havas qilsa arziydi. Bir o'y lab ko'ring-a, qanaqadir g'arazli to'dalarga qo'shilib, o'z kelajagini barbod etayotgan, adashib yurgan kimsalardan ko'ra, Farhodjonlarga o'xshab el-u yurtning xizmatini

qilib, izzat-hurmatda yurgan ma'qul emasmi?!

Polosonlik qariyalarning bu fikrlariga qo'shilmasdan iloj yo'q.

- Bolalarimiz Vatan uchun, yaxshilik uchun yashasinlar, ezgu ishlar qilishga intilsinlar, chuqur bilim olsinlar, ko'proq kitob o'qisinlar, - deydi Ne'matjon bobo Abduraimov.

Qishloq orab o'tayotib, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjoniga duch keldik. Xalq shoiri muhtarama onasidan, do'st-yorlaridan xabar olish uchun bu yerga kelgan ekan. Birgalikda maktabga kirdik. Bir zumda o'quvchilar shoirning atrofini o'rab olishdi. Qaysiki ijodkor, avvalo, o'z tug'ilgan joyida hurmat



UMIDANING ORZU CHECHAKLARI

Qadim sharq olamining piri komil-laridan biri – Hofiz Sheroziy shunday bir hikmatni aytgan ekanlar:

«Tilakni izla, qo'y dunyoni, ber orzuga tadbillar».

Ushbuni bejiz aytmaganlar alloma.

Orzu qalbni nurlantiradi.

Orzu qalbni murodlantiradi.

Orzu qalbni yuksaltiradi.

So'zga qalbini ne-ne orzu bilan ochayotgan yosh shoira Umidaning yozuvlarini o'qiyotib, kanglumdan shundayin bir kechim kechdi. Tabiiyki, bunga uning yozuvlari boisdur.

Umidaning so'zi orzuning iforli

chekchaklariga, orzuning shaffof izhoriga mengzab, musaffolik ravishiga yo'g'rilib keladi.

Havaslanib keladi.

Orzu hissiga,

tilak hissiga,

murod hissiga,

hayrat hissiga uyqashib keladi.

Bunday hislar, sezimlar sirasi she'r uchun judayam muhimdir.

Istagim, Umidaning hislari: yanayam ranginlashsin, yanayam quyulashsin, yanayam to'lishsin.

Hayratga molik orzu chechaklari mo'l bo'lsin.

Ikrom OTAMUROD

OSTONADAN BOSHLANAR SABOQ

Maktab – bilimdonlar makoni,
Hayot sabog'idan beradi bilim.
Kirib kelsak ushbu dargohga,
Qalb qo'rini to'kar muallim.

Ostonadan boshlanar saboq,
Maqsad erur a'lo o'qimoq.
Bu maskanda nafaqat o'qish,
Balki kerak chin ixlos qo'ymoq.

BORLIQQA NUR SOCHDI
QUYOSH

Ketib bo'ldi qora bulut,
Borliqqa nur sochdi quyosh.
Yer bag'ridan ko'z-ko'z etib,
Maysalar ham ko'tardi bosh.
Qarib qolgan tog' bag'ridan,
Jo'shib oqdi shalolalar.
Tikanzorlarning o'rnida
Una boshladi lolalar.

Azim chinor, mag'rur terak,
Yosh novdalar chiqaradi.
Yoshlar ilm darajasin
Yuksaklarga ko'taradi.

Tiklanib bor qadriyatlar,
Ozligini angladik biz.
Buyuk o'tmishimizni
Ovozalar ayladik biz.

Kelajak avlod uchun
Sharoitlar yaratildi.
Ma'rifatga yuksak qadr,
Ham e'tibor qaratiladi.

Bizlar bundan bo'lib mamnun,
Sadoqatga boylanaylik.
Hech kim zabt etolmagan,
Cho'qqilarga aylanaylik!

Umida HAMROYEVA,
Xalq ta'limi vazirligiga
qarashli filologiya
fanlariga ixtisoslashirilgan
ijtimoiy yo'nalishdagi
maktabning 8-«A» sinf
o'quvchisi

SINFDO SH

Hayoli, iboli qiz bolaga xos,
Dugonalar bo'ldik to'qiz yil sirdosh,
Palapondek uchdik ko'zimizda yosh,
Sizni sog'inaman, aziz sinfdosh!

Maktabni bitirib ketganda yiroq,
Yonimda do'st-u yor bo'lsa-da, biroq,
Sizdayin bo'lolmas menga yaqinroq,
Sizni sog'inaman, aziz sinfdosh!

Goho inoq bo'lib, goho arazlab,
Goho sensirashib, gohida sizlab,
Endi esa o'tgan kunlarni eslab,
Sizni sog'inaman, aziz sinfdosh!

Cho'ntakka qo'l solib turish yo'q endi,
Darsda uxlab, xayol surish yo'q endi,
Bolalik zavqida yurish yo'q endi,
Sizni sog'inaman, aziz sinfdosh!

Deydilar, qiz bola palaxmon toshi,
O'z uyin tark etib qo'shilsa boshi,
Qalbimni tark etmas yoshlik quyoshi,
Sizni sog'inaman, aziz sinfdosh!

Shohista KOMILOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston
tumanidagi
O'zbekiston pedagogika kolleji
talabasi

ARI

Mittigina asalari,
Qoch yonimdan, ket nari.
Meni chaqma, yonimdan qoch,
Ana, yotar uzun yog'och.
Chaqsang, tayyor turaman
Yog'och bilan uraman.



OLMA

Tokchada bor beshta olma,
Olmadan oldi Olima.
Olma esa uchta qoldi,
Xo'sh, Olima nechta oldi?



Dildora ESHMURODOVA,
Shayxontohur tumanidagi
85-maktabning
9-«B» sinf o'quvchisi

Qarangki, misradagi to'rt rukndan ikkitasi radif bilan band bo'lishiga qaramay, shoir dastlabki ikki ruknda ana shu uch rangga dalil keltirishga ulguradi. Chunonchi, birinchi misrada – jonon kiyimining rangi (ko'z oldiga keltirish mumkin: durrasi sariq, ko'ylagi qizil, nimchasi yashil), ikkinchi misrada – shu'la rangi qizil, sariq va ko'k rangda bo'lishi.

Aruzga xilof taxmisga yana bir misol:

Aylagay dillarni sarmast, shul
sabab jonlar tirik,

Sehridin xushbo'y taralmish,
naf'idur ming bor firix, (?)

Ol yonoqing birla har dam
qo'shilib ketgay zirih,

Och-ga-nung-da' ne-cha har to'ri a-ro-dur'
yuz gi-rih,

Gar ko'n-gul-lar ban-d qil-may' dur sa-ro
sar' ko-ku-ling.

(«Muloqot», 2004-yil, №1.)

Navoiyga tegishli band taqti'idan ko'rinish turibdiki, bu g'azal ham oldingi misol kabi aruzning eng keng tarqalgan ramali musammani mahzuf (har misrada uch karra fo'i-lo-tun va bir marta fo'i-lun) bahrida yozilgan. Taxmisga kelsak, ikkinchi misrada «naf'i-dur» so'zi aruzga muvofiq tarzda

qo'llangan, ammo o'ta cho'ziq hijolar barmoq vaznida olingan. Chunonchi, Navoiyga tegishli baytda bir bo'g'inli «band» so'zi o'ta cho'ziq hijo bo'lgani uchun – v o'lchovida kelmoqda. Taxmisda ham shu qoidaga amal qilinishi shart edi. Ammo birinchi misradagi «sarmast» so'zining ikkinchi bo'g'ini xuddi shu – v o'lchovida bo'lishiga qaramay, bir bo'g'in deb olingan. Endi o'zimizni bu va bunga o'xshash muxammaslarni o'qiydigan

Abdulla A'ZAMOV

ARUZ BAHSI

o'quvchining o'miga qo'yib ko'raylik: aruzda o'qisa, birinchi misra bir hijo ortib ketadi, barmoqda o'qisa, beshinchi misrada bir bo'g'in yetmay qoladi. Hozir ko'pchilik ikkinchi usulga moyil bo'lgani uchun bu muxammasni o'qiganga aynan Navoiyga tegishli misra «sakta» bo'lib tuyuladi. Natija: Navoiy g'azaliga barmoq vaznida muxammas yozishdan niyat durust, ammo ko'p hollarda oqibati bunga zid.

Aruz vaznini buzish hollari fors tilidagi mumtoz adabiyot tarjimalarida juda ko'p uchraydi. Aruzni she'rni barmoq vaznida yoki aruzga barmoqni

aralastirib tarjima qilish g'oyat taassufli holat. Misol (Foniy devonidan tarjima, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»):

*Nigorim turk-u tojikdur, qilur yuz xona vayrona,
Ayo kiprikleri tojikvash-u ham chashmi turkona.*

*Qanot-u quyrug'i ham dil qushining kechalar kaygay,
Axir sham' tegrasida tunlari parvona-parvona.*

*Dilimning ishq binosiga eshikdur darzi ko'ksunning
Alifdurkim eshik yoni, tekis xatlarki – dandona.*

...

G'azalning asli:

Ni-go-ri tur' ku to-ji-kam' ku-nad- sad-xo' na yay-ro-na,

Ba-d-on mij-go' ni to-ji-ko' na-vu chash-mo' ni tur-ko-na.

...

Bi-ho-dad mur' g'i dil-ro so'x-t-o-xir bo-lu par, yak shab

Zi bas gir-di' sa-ri on sham' me-gar-dad' chu par-vo-na.

Bi-no-i ish' q-ro dar dil' shi-ko-fi siy'na dar bo-shad,

A-lif-ho pah' lu-i ham bar' da-rash xat-bo'i dan-do-na...

(Davomi bor)

SAMARQANDDA TOSHKENT KO'CHASI



**Bu mo'jaz avtoulav
yo'lovchilar uzog'ini yaqin
qilmoqda.**

Har safar Samarqandga tashrif buyurganimizda, shahardagi yangidan yangi o'zgarishlar hayratimizni oshiradi. Bu gal ham Samarqandning yangi, keng va ravon Toshkent ko'chasidan borar ekanmiz, chiroyli, hashamatli do'konlarni ko'rib, o'zimizni Yevropa shaharlarida yurgandek his qildik. Bu ko'chadagi ajoyib bir avtoulav e'tiborimizni tortdi. Avtoulav Registon maydonidan Toshkent ko'chasi bo'ylab harakatlanib, yo'lovchilar uzog'ini yaqin qilar ekan. Do'konlardagi zardo'zli kiyimlar-u hunarmandlar yasagan haykalchalarga mahliyo bo'yli, 21-maktabga borib qolganimizni ham sezmay qolibmiz.

Maktabga kirib borganimizda, bizni direktor Sayyora opa MELIKOVA qarshi oldilar.
— Hozirda maktabimizda 1519 nafar o'quvchi bilim olmoqda. O'quvchilarimizga fidoyi, o'z kasbini dildan sevuvchi 72 nafar o'qituvchilar saboq berishadi. Maskanimiz «Yilning eng yaxshi maktabi» nominatsiyasi bo'yicha 3-o'rinni qo'lga kiritgan edi. Shu kunga qadar bu sharafli nomga munosib bo'lishga harakat qilib kelmoqdumiz.



**«Mohir qo'llar»ning mohir
qizlari.**

O'quvchilarimiz viloyat va Respublikada o'tkaziladigan fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib, ustozlari bergan saboqlarini oqlamoqdalar. Hech ikkilanmay, bularning barchasi biz ustozlar uchun katta sharaf, deb ayta olaman.



Sayyora opa maktabda faoliyat yuritayotgan 27 ta to'garak haqida ham alohida to'xtalib o'tdilar. Bu to'garaklarni bir ko'rish barobarida iqtidorli o'quvchilar bilan yaqindan tanishib oldik:
— Ustozimiz Nigora opa Berdiyeva ko'rsatib bergan har bir kimyoviy reaksiyalarni diqqat bilan kuzataman, — deydi «Yosh kimyogar» to'garagi a'zosi, 8-«D» sinf o'quvchisi Baxtiyor Xoliqov. — Kelajakda

shifokor bo'lmoqchiman. Shu sababli, kimyo, biologiya fanlaridan a'lo baholarga o'qishga harakat qilaman.

— To'garak rahbarimiz Lola opa Boltaboyeva bizga qo'g'irchoqlarimiz uchun milliy liboslar tikishni o'rgatdilar. Bu yil viloyatda bo'yli o'tgan «Milliy qo'g'irchoqlar» tanovida qatnashdik. Unda 7-«B» sinf o'quvchisi Malika Oqtlova g'olib deb topildi, — deydishi quvonch bilan «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolari Maftuna Ismoilova hamda Rayhona Samariddinova.

«Shaxmat-shahka» to'garagi a'zolarining diqqatlarini bo'lmaslik uchun ulardan ism-shariflarini so'ramadik, shunchaki, ularni esdalik uchun suratga olib qo'ydik.



Zuktkolar bellashuvi.



**«Maktab
tarixi
muzeyi»dan
joy olgan
ekspozitsiyalar.**



Maktabda tashkil etilgan muzeyga kirib, maktab tarixiga oid ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'ldik. Sayyora opa bilan muzeyni aylanar ekanmiz, muzeydagi turli ekspozitsiyalar, tarixiy fotosuratlarini ko'rib, maktab haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ldik. Sayyora opa maktabning birinchi direktori Yusufova Hodiya Mustafayevnaning suratlarini faxr bilan ko'rsatib:


— Shu kungacha mana shunday fidoyi rahbarlardan 10 nafar maktabni gullab-yashnashda o'z hissasini qo'shgan. Rahbarlarning jonkuyarligi, o'z kasbining yetak mutaxassisi va mehribanlik muallim bo'lganliklari uchun ham o'quvchilar ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishganlar. Maktabni buzganlar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov va boshqa juda ko'p ziyolilar, olimlar, shifokorlar, muhandislar, jurnalist va yozuvchilar borligi bizning faxrimizdir. Bundan tashqari, yuzlab texnika sohasi bilimdonlari yetishib chiqqan. Mana bu ko'rib turgan samolyot modellari ham shu maktabning sobiq o'quvchilari yasaganlar.

Darhaqiqat, muzeydagi ekspozitsiyalarni ko'rib, muzey nafaqat bizga, balki maktab o'quvchilariga ham maktab tarixini ko'rsatib bera oluvchi yagona joy ekanligiga amin bo'ldik.

**Bu bilim maskanida
fidoyi o'qituvchilar-u
iqtidorli o'quvchilar
ko'pligidan quvondik. Bu
yil «Yilning eng yaxshi
maktabi» ko'rik-tanlovida
1-o'rinni qo'lga
kiritishlarini tilab,
xayrlashdik.**



MEHR ILDIZ OTGAN MASKAN



Har bir sinfda sakkiz, o'n nafar o'quvchi ta'lim va mehribon ustoz-nafar tarbiyachilar saboq beradilar. 1-«A» sinf o'quvchisi Laylo Ne'matova ustoz Gavhar Ibragimovani juda yaxshi ko'radi.

– Internatimizda 25 ta sinf va bitta maktabgacha tarbiya guruhi faoliyat ko'rsatadi. Viloyatning turli tumanlaridan kelgan ehsitish qobiliyatini yo'qotgan 293 nafar tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiya oladilar. Har bir sinfda o'quvchilar bilimni ko'rsatuvchi monitoring burchaklari tashkil qilingan. 15 ta to'garaklar hamisha bolalar bilan g'ayjum, – deydi maxsus maktab-internat direktori Gulnora opa IRGASHEVA.



Samarqand shahridagi 61-kar bolalar maxsus maktab-internati bilan yaqindan tanishish maqsadida maktab tomon yo'l oldik. Darvozadan kirishimiz bilanoq bizni bir ayol qadrdonlardek qarshi oldi. Suhbat davomida bildikki, u kishi maxsus maktab-internat direktori Gulnora Irqasheva ekan. Opa bizni o'quvchilar tomon boshladi. Har bir sinfga kirishimizni, bolajonlar bilan suhbatlashishimizni juda-juda istadilar. O'zlari esa o'quvchilar bilan suhbatga kirishib ketdilar:

- Isming nima?
- Mening ismim Dilnoza, – qiyinalib, bo'g'inga bo'lib-bo'lib javob berdi qizcha.
- Nechanchi sinfda o'qiyasan?
- 4-«A» sinfda o'qiyman...
- Bizni hayron bo'lib turganimizni ko'rgan direktor opa: «Siz ham savol bering», dedi menga yuzlanib. Ehsitish qobiliyatini deyarli yo'q o'quvchining savollarga javob berishi bizni chindan-da hayratlantirgan edi.
- Familiyang nima? – so'radim hayqijonimni yashirmay.
- Dilmurodova, – dedi tabassum bilan. Shunda Gulnora opa ovoz chiqarmay, faqat lablarini harakatlantirib qizchani yana savolga tudilar. Dilnoza hech tiklanmay har bir savolga aniq javob berishga harakat qildi. Angladikki, o'quvchilar lablarning harakatlantirish orqali suhbatdoshining nima deyayotganini tushunishar ekan.

Bolajonlarning bu qobiliyatli ular bilan suhbatlashishimizni biroz bo'lsa-da, yengillashirgan edi.



Bagungi mehnat ertaning farovonligini ta'minlaydi. Shu sababdan ham internatda o'quvchilarning hunar egallashlariga alohida e'tibor qaratilgan. «Zardo'zik», «Bichish-tikish», «Munchoq tikish», «Mato bo'laklari» singari to'garak a'zolarining ijodiy ishlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirar ekanimiz, qo'li gul o'quvchilarga qarata «barakalla» dedik. Mavjuda Islomova, Kim Olga Vladimirovna, Saida Suyarova, Rafjoat Po'latova, Nazira Habibova kabi jonkuyar, mehribon ustozlar sabog'i zo'ya ketmayotganiga guvoh bo'ldik.

Qo'sh sahifani Feruza SOYIBJON qizi hamda Guluz BAHODIR qizi tayyorlashdi



– Yilda ikki marotaba har birimizni chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi, – deydi 4-«A» sinfning eng a'lochi o'quvchisi Dilnoza Dilmurodova.



3-«A» sinfga kirganimizda, u yerda musiqa darsi bo'layotgan ekan. Sardo Normuhamedov sinfdoshlari bilan birgalikda «O'g'il bolalarini ijro etib berdi».

Maxsus maktab-internatdan qaytar ekanmiz, garchi ko'nglimizning bir chekkasida ma'yuslik paydo bo'lgan bo'lsa-da, bolajonlar ishonchli qo'llarda ekanligidan ko'nglimiz ravshan tortdi va bu bilim dargohini «Mehr ildiz otgan maskan» deya nonladik.

BARKAMOL AVLOD QUVONCHI

Samarqanddagi 37-umumta'lim maktabiga kirib, ko'zimiz kichik navbatchiga tushdi va uni savolga tutdik:

- Isming nima, bolakay?
- Ismim Mirzabek, 8-«G» sinfda o'qiyman.
- Bugun maktabda navbatchi ekansan-da?
- Ha, bugun men o'quvchilarning maktabdagi ozodalikka, tartib-intizomga rioya qilishlarini nazorat qilaman.
- Demak, bugun hamma o'quvchilar senga quloq solishadi, to'g'rimi?
- Maktabdoshlarim intizomga qattiq rioya qiladilar.
- Unda bizni o'zing maktab direktori xonasiga olib borasan, shundaymi?
- Albatta.

Maktab rahbari Zamira AKROMOVAning xonalariga kirganimizda, direktor opamiz bizni tabassum bilan kutib oldilar.

Zamira opa shu maktab qaldirg'ochlaridan ekanlar. 23 yildan buyon o'zlari o'qigan maktabda faoliyat yuritib kelayotgan rahbar sevimli maskani haqida shunday hikoya qiladi:

2009-yilda maktab kapital ta'mirlanib, 6 ta boshlang'ich sinf xonasi, ma'naviyat va ma'rifat, kasbga yo'naltirish, rasm va chizmachilik, chet tili, o'g'il bolalar mehnati, fizika, kimyo, biologiya fan xonalari, kutubxona, faollar zali, sport zali, oshxona yangi jihozlar bilan ta'minlandi. Barcha fan xonalari o'quvchilarda ushbu fanga qiziqish uyg'otish, ularni ma'naviy yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan ko'rgazmalar bilan

boyitilgan. Maktabimiz ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan bo'lsa, 71 nafar malakali o'qituvchilar 1527 nafar o'quvchilarga chuqur bilim berib kelmoqdalar. Shu boisdan bo'lsa kerak, shahar olimpiadasida ishtirok etgan 9-«G» sinf o'quvchisi Sunnatillo Abdurazizov biologiya fanidan 1-o'rinni, 9-«V» sinf o'quvchisi Aziz Boltayev 2-o'rinni, ingliz tili fanidan 9-«G» sinf o'quvchisi Mohlaroyim Mavlonova 1-o'rinni, Abubakr Nurullayev kimyo fanidan 2-o'rinni egalladilar.

Darhaqiqat, maktabda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p ekan. 6-«V» sinfiga kirganimizda, o'quvchilar diqqat bilan ustozlarini tinglayotganlarining guvohi bo'ldik. Shu sinf o'quvchisi Doniyor Joniyev sport bilan shug'ullanib, bir qancha yutuqlarga erishganini so'zlab berdi.

7-«A» sinf o'quvchisi E'zoza Hazratqulova o'zi yozgan she'rilaridan o'qib bersa, Abdumajid Toirov 2009-yilda viloyat miqyosida o'tkazilgan O'zbekiston qo'shiq bayramida 1-o'rinni olgani haqida g'ururlanib gapirdi. Fotima va Zuhra Umarovalar esa «Yangi avlod - 2010» Bolalar ijodiyot festivalida raqs bo'yicha ishtirok etib, shahar bosqichidagi muvaffaqiyatlarini biz bilan o'rtoqlashdilar.

Bu maktab o'quvchilarining barkamol avlod bo'lib voyaga yetayotganliklari bizni behad quvontirdi. O'z yo'limizda davom etar ekanmiz, fidoyi ustozlar, iqtidorli o'quvchilarga omad tilab, bundan-da yuksak muvaffaqiyatlarga erishishlariga tilakdosh bo'ldik.

G. GORIFJONOVA



Bugun maktabda Mirzabek navbatchi ekan.



6-«V» sinfida tarix darsi.



Raqqosa opa-singillar Fotima va Zuhra o'z muvaffaqiyatlaridan mamnunlar.

Bugun ishim barakali bo'ldi. Shu bois barvaqtroq uyga otlandim. Avtobus ham tiqilinch emas. Oynadan tashqariga qaragancha ketayapman. Poytaxt kundan-kunga boryapti. Yaqin orada qad rostlagan binolar kishi ko'zini quvontiradi. Teki avtobusning yurganiyam bilinn Bekatlarda to'xtaydi. Kimdir tus kimdir chiqadi. Navbatdagi bekatda to'xtada o'quvchilar chiqishdi. Avtobus jonlanib ketganday bo'ldi.

Bolalardan biri o'rtaroqdagi bo'lrindiqlik tomon chaqqon yo'naldi. Yana bir sherigi ham o'sha joy qarab yugurdi. Bir kishilik joyga ik bola bir sakrashda o'tirib olishi Kulib yubordim. E'tibor bermag ekanman, yonimda yoshi kattar onaxon o'tirgan ekan. U kishi h bu holni ko'rib, jilmayib qo'ydi. Bo esa bir-birini turtishib, men avval c deya talasha ketishdi. Bir-ikki yo'l esa pattachi ham ularni tartibga chaqirdi. Qani endi tinchiy qolishsa. Ikkinchining og'zidan ham paydar-pay noma'qul so'zlar otila boshladi. Biri «maymun» desa, ikkinchisi «cho'chqa» deydi, «mishiqi» desa, «so'tak» deb javob qaytaradi. Buyam holva ekan, birozdan so'ng ular bir-birlarini shunday so'ka boshlashdiki, asti qo'yaverasiz. Yonimdagi onaxon asta o'rindirlaridan



turib, bolalar oldiga bordilar. Hozirgina o'zlari bo'shatgan joyini ularga taklif qildilar. Bolalarning izza bo'lganlarini ko'rib, nasihat qildilar.

Asal bolalarim, shakar bolalarim, odamzodga til yomon so'zlar aytish uchun berilmagan. Otajon, onajon deb yaqinlarini e'zozlash uchun berilgan. Yomon so'z chiqqan uydin baraka qochadi.

Onaxon yana ancha bama'ni nasihatlar qilib, keyingi bekatda tushib qoldilar. Bolakaylar esa qattiq m bo'lishdi. Ikkisi ham o'rindan turgancha o'tirishmadi. Xuddi o'rindiqlik sehrlanganday gi bekatgacha bu joyda hech kim o'tirmadi. g ham kayfiyatim buzilgandi. Orasta, chiroyli an bolalarning og'zidan shunday gaplar sa... Nimaga ayrim bolajonlar behayo zlarni bemalol aytishdan uyalishmayapti? balki bunda biz kattalarning ham aybimiz bordir?! Bolalarimiz oldida ayolimizga qanday munosabatda bo'layapmiz? Ularga ibrat bo'la o'layapmizmi?..

Darvoza qo'ng'irog'ini bosdim. Eshik ochilishi bilan meni allaqanday xushkayfiyat qamrab oldi. Kenja qizimning chiroyli salomiga alik olib, ostona hatladim.

Onasi, men keldim. Hozir kiyimlarimni shirib chiqay, qarashib yuboraman. alarimning onasi hayron. Chunki bugun ha edim. Ishdan kelib qattiq televizor qarshisiga hmadim. Hech kimga qattiq gapirmadim.

Hazul-huzul qilib birgalikda taom tayyorladik. Dasturxon tepasida esa bolalarimga onasining qo'li shirinligi, dunyodagi eng yaxshi ona ekanligini aytishga uyalmadim. Uyimiz, nazarimda, nurafshon bo'lib ketganday edi...

Yusuf ABDULLAYEV

O'quvchilarimiz ustoz va murabbiylarini kasb bayramlari bilan qutlash istagida yo'llayotgan maktublar keti hamon uzilmayapti. Afsuski, ularning barchasini gazetada e'lon qilish imkoniyati yo'q. Shunday bo'lsa-da, xatlaridan qisqa satrlar keltirib o'tishni joiz topdik.

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Qaynar qishlog'ida 28-maktab o'quvchisi Yolqin Eshquvratov «Kelajakka baxshida umr» nomli maqolasida 1-sinfidan 8-sinfga qadar ularga sinf rahbari bo'lib kelayotgan, yaqinda tabarruk yoshini qarshilagan mehdariy ustoz Hamida Murodovani ayyom bilan qutlab, uning mazmunli hayot yo'li, mehnat faoliyati haqida to'liqlanib yozibdi. Tasviriy san'at va chizmachilik fanidan saboq berib kelayotgan ustozning ko'plab shogirdlari mazkur fan olimpiadalarining tuman, viloyat bosqichlarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelayotganini faxr bilan bayon qilibdi.

Shuningdek, maktab yetakchisi Shoir Abloqulovani ham bayram bilan muborakbod etib, bu serg'ayrat, tashabbuskor ustoz o'tkazgan tadbirlardan lavhalar yuboribdi.



«Ustozlarga qanchalar ta'zim qilsak, rahmatlar aysak ham bizga bergan bilimlari, o'g'itlari haqqini to'lay olmaymiz.

Yurtning aqli komil farzandlari bo'lolsakkina, bu badalning haqqini to'lagan bo'lamiz».



Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridan maktub yo'llagan Dilnoza Sharipovaning ustozlariga bag'ishlangan maqolasida shunday fikrlar bayon qilinadi.

«Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'rgan kunlarimdan birinchi ustozim Shoir opa Egamberdiyevaga havas qilib, o'qituvchi bo'lishni dilimga tugib qo'ygandim. Ulg'ayganim sari bu orzu aniq maqsadga aylana bordi. Ne baxti, G'ijduvon shahrida qad rostlagan pedagogika

kollejining ilk qaldirg'ochlari safidan o'rin oldim. Kollejda boshlang'ich ta'lim sohasi bo'yicha tahsil olib, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lmoqchiman. Bu surat esa tanlagan kasbimning qizg'in bir jarayoni».



MAKTUBLAR - DIL - TARJIMON

*Inson qachon qo'lga qalam oladi?
Qachonki biror narsadan gattiq ta'sirlansa, quvonsa, hayajonlansa, hissiyotga berilsa, shunday emasmi?!
Respublikamizning turli burchaklaridan tahririyatimizga kelayotgan maktublarni o'qib, mualliflarimizdagi ana shunday holatlarni his qilgan-dek bo'lamiz. Kimdir fan, ta'lim sohasida qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlari haqida yozsa, yana kimdir sport sohasidagi ulkan yutuqlarini suyunchilaydi. Qay bir o'quvchimiz maktabi, tengdoshlari hayotiga oid yangiliklar bilan o'rtoqlashsa, boshqalari chizgan rang-rang rasmlari, tuzgan boshqotirmalaridan yo'llashadi. Maktublarning aksariyatida ijodkor o'quvchilar o'z ijod namunalari bilan yuborishadi. Ustozlarga yozgan past bahodan yoki uning tanbehidan ranjib maktub yo'llaydigan o'quvchilarimiz ham yo'q emas.*

Keling, yaxshisi, dil nomalariga birgalikda ko'z yugurtiraylik.

Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi Bobur nomli maktab o'quvchisi Abdullajon Ibodullayev juda hozirjavob muxlislarimizdan chiqib qoldi. Gazetamizning o'tgan sonida e'lon qilingan «Bilimning sinab ko'r!» rukni ostidagi boshqotirma va topishmoqlarning javoblarini yozib yuboribdi.

Samarqand viloyati, Samarqand shahridagi 44-maktabning 8-sinf o'quvchisi Iroda Yodgorova «Samarqandda non sayli» nomli maqolasida shunday yozadi:

«Samarqand shahrimizda bo'lib o'tgan «Non sayli»da viloyatning barcha tumanlaridan kelgan mohir usta nonvoylar o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Samarqand tumanining besh turdagi Galaosiyo patirlari, Nurobodning bayram nonlari, muraboli shirin kulchalari, Urgutning uyurma, kunjulji, sedanali nonlari, Pastdarg'omning tuxumli, yong'oqli, asalli, ko'katli, qaymoqli va hatto lavlagili, qoqli nonlari, chandir non, chandir patirlari, Jonboyning echki suti, tovuq go'shtidan tayyorlangan patirlari va boshqa tumanlarning cho'pon non, qozon non, obi non, gulli non, sariyog'li nonlari o'z ko'rinishi, xushbo'y hidi bilan yig'ilganlarga a'lo kayfiyat bag'ishladi. Ayniqsa, Samarqand tumani maishiy xizmat kolleji talabalarining mustaqilligimizning 19 yilligiga atab tayyorlangan nonlari hayratimizni oshirdi».

Sirdaryolik faol muxbirlarimizdan biri Furqat Karimov esa Guliston shahridagi ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida «Yosh muxbirlar maktabi» ish boshlagani haqida xabar yo'llabdi.

Tahririyatimizga ustoz va muallimlarimizdan ham talaygina maktublar kelayotgani quvonarli holdir. Farg'onalik o'qituvchi Hayotxon QODIROVning maktubida shunday satrlarni o'qishimiz mumkin:

«Quyidagi she'r muallifi Ergasheva Gulshoda Yoqubjon qizi Farg'ona viloyati, Beshariq tumanining olis qishloqlaridan biridagi Eshon mahallasida yashaydi.

– Il yoshli qizaloqning kattalardek fikr yuritib, she'rlar yozishi ustozlari sabog'i mevasining debochasi bo'lsa, ajabmas, – deydi direktor o'rinbosari Bahodir Pirxonov.

Biz ham Gulshodaning ijodiga rivoj tilab, kelgusida ajabtovur shoir bo'lib yetishishiga umid qilib qolamiz».

SENI SOG'INIB...

Kuz keldi-yu, xazonlar yog'ib,
Xayrlashding bog'im-la bahor.
Sabr bilan yana qaytishing,
Kutajakmiz seni intizor.

Gul terardik quchoq va quchoq,
Hadya emoaq uchun onamga.
Quyosh nurin qizg'anmas edi,
Mo'ralardi tongda xonamga.

Ariqlarda suvlar shairav,
Sho'x qo'shig'in kuylab oqardi.
Subhidamda bulbul xonishi,
Murg'ak qalbgacha chunon yoqardi.

Oqshom qo'nsa, uyga shoshardik,
«Uy-uyiga» she'rini aytib.
Hozirdanoq sog'indik, qachon
Bahorjonim, kelasan qaytib?!

Gulshoda ERGASHEVA

Gazetamizning elektron pochta-siga kelayotgan maktublar soni ham ortgandan-ortib boryapti. Kuni kecha Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 38-maktabning 8-sinf o'quvchilari Dilsora Muqimova, Zilola Shamsiyevalar she'riy mashqlaridan yuborishgan bo'lsa, Xorazm viloyati, Xonqa pedagogika va sport kolleji Kamolot YOIH sardori Nodira Karimovaning ustozlar mehnati, zahmati, mashaqqati, mas'uliyati haqida yozilgan maqolasida shunday satrlarni o'qish mumkin: «Mashhur fransuz yozuvchisi Juber: «O'qitish ikki barobar o'qishdir», deb yozgan edi. Uning so'zlariga shubha qilsangiz, uka yoki singlingizga dars tayyorlashda ko'maklashing yoki biror narsa o'rgatishga urinib ko'ring, shundagina bu kasbning mashaqqatini his qilasiz...»

Shuningdek, qashqadaryolik Ixtiyorbek Niyoqulov, surxondaryolik Sohiba Jo'rayeva, buxorolik Sharifa Rahimova, toshkentlik Dilshodbek Tursunov, namanganlik Farida Hamidova, farg'onalik Feruzabonu Ergasheva, navoiylik Nigina G'aniyeva, andijonlik Dilafruz O'sarova, surxondaryolik Shahodat Eshmuhammedova, samarqandlik Zoir Jo'rayevlardan ham maktublar oldik. Buning uchun ulardan behad minnatdormiz.

Ularning aksariyatida o'quvchilarimiz she'riy mashqlaridan yo'llashgan. She'rlar esa alohida mavzu.

Feruza JALILOVA

Aql va til

Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21 ming 197 ta betakror so'z ishlatgan. Shekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta so'z, shu jumladan, 26 mingta betakror so'z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan.

Goho aql qancha qisqa bo'lsa, til shuncha uzun bo'ladi...

Maktab o'qituvchisining so'zi o'ttiz bolaga yetib boradi.

Dorilfunun domlasining so'zi yuz talabaga yetib boradi.

Notiqning so'zi ming tinglovchiga yetib boradi.

Qalamkashning so'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning so'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir.

O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan OFTOBOYIM tayyorladi

O'ZINGNI SINAB KO'R!

1

Yetti yoshlilar uchun rasm topishmoq.

Aziz kichkintoylar, shoir Ilyos Muslimning quyidagi she'rini o'qib, unda tasvirlangan qushning rasmini chizing va uni bizga yuboring. Chizgan rasmlaringizni shu ruknda e'lon qilamiz.

O'zi g'alati, novcha,
Baland joyga qo'yar in.
Cho'chita ko'r mang
sira,
Taqillatar tumshug'in.
Kelishar har ko'klamda
Mehmon bo'lib uzoqdan,
Xursand bo'lib o'lkamdan
Jo'nashar kech kuzakda.
Bu nimadir, bolalar?

2

Sharofiddin bog'dan bir savat olma uzib keldi. Do'stlari toqqa sayohatga ketayotgan edi. Ularga bittadan olma berdi. Savatda nechta olma bor edi? Sharofiddinda nechta olma qoldi? Ushbu jumboqni qanday yechish mumkin? Bir urinib ko'ring-chi?

3

Asalari uyasidan o'nta asalari chiqib ketdi. Qaytishda ulardan ikkisinin boshi uzib tashlandi. Nima uchun?

4

Mirzo Ulug'bek nechta yulduzni aniqlagan va uning dunyoga mashhur asari qanday ataladi? Eng to'g'ri javob yo'llagan muxlisimizga maxsus sovg'a yuboriladi.

XANDA

Yosh muallima dugonasiga hasrat qildi:
– Sinfimdagi bir o'quvchi shunaqa sho'x-ki, sira dars o'tgani qo'ymaydi.

– Uning birorta yaxshi tomoni ham bordir?

– Afsuski, bor! U hali biror darsimni goldirgani yo'q.

Fayzulla
ABDULLAYEV



O.VOSIXONOV
chizgan rasm

OMAD SIZGA, ZAKOVAT- CHILAR!



Poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 243- maktabda «Yosh zakovatchilar» intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Musobaqa ishtirokchilari Ravshan Ismoilov, Davron Qahramonov, Jasur Mavlonovlar oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Zakovat» intellektual o'yinining yanada qiziqarli o'tishiga ham hissa qo'shib kelmoqdalar.

Shuningdek, maktab o'quvchilari orasida Jamshid Saidahmedov boshchiligidagi «Quvnoqlar va zukkolar» musobaqalari tez-tez o'tkazib turiladi. Shahar miqyosida o'tkazib kelinayotgan bunday bellashuvlarda ham maktab jamoasi munosib o'rnlarni egallab kelmoqda.

Muzaffar AHMEDOV



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi.

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga

qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV

Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 32774
Buyurtma N: J 320